

Neft mahsulotlarini yetkazib berish haqida

SHARTNOMA № 1/31

2022 yil «10» yanvar

Kuchlik MFY

«Kuchlik neft bazasi» mas'uliyati cheklangan jamiyati (keying o'rinlarda «Yetkazib beruvchi» deb yuritiladi) «Nizom» asosida faoliyat ko'rsatuvchi raxbari E.T.Xudayshukurov bir tarafdin va Parkent Qorasuv irrigatsiya tizimi boshqarmasi (keyingi o'rinlarda «Iste'molchi» deb ataladi) nomidan «Nizom» asosida faoliyat yurituvchi rahbari A.N. Ismatov ikkinchi tarafdin ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar;

1. SHARTNOMANING MAZMUNI

1.1. «Yetkazib beruvchi» «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlari o'zaro kelishilgan narxlarda belgilangan tartibda yetkazib berish, «Iste'molchi» esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini oldindan 100% to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda o'z zimmasiga oladi.

Neft mahsulotining nomi	Miqdori (tn)	(1 tn. uchun) 07.01.2022 yildan belgilangan narh	Haqiqatda sotilgan mahsulot narhi (hisob-fakturaga asosan)	summasi (summa birja o'rtacha kotirovka narxlariga asosan o'zgarishi mumkin)
Dizel yonilg'i	1,060	10 371 049,00		10 993 311,94
JAMI				10 993 311,94

1.2. Shartnomaning umumiy qiymati 10 933 311,94 so'mni,

Shu jumladan QQS 1 433 910,25 so'mni tashkil qiladi va «Iste'molchi» yil davomida oladigan neft mahsulotlari uchun oldindan 100% to'lovni quyidagi hisoblardan amalga oshiriladi:

Byudjet hisobidan: On million to'g'iz yuz to'g'zon uch ming uch yuz on bir so'm, (94) klyn

Byudjetdan tashqari (mahsus) hisobdan: — so'm.

1.3. Shartnoma summasi yoki narxlar o'zgariganida shartnomaning umumiy qiymati o'zgaradi va bu haqida shartnomaga o'zgarish kiritish uchun qo'shimcha kelishuv bitimi tuziladi.

2. MAHSULOT YETKAZIB BERISH VA MUDDATLARI

2.1. «Neft mahsulotlari «Iste'molchi»ga neft mahsulotlari «Yetkazib beruvchi»ning maxsus avtotransportida yoki tranzit tartibida yetkazib beriladi. «Iste'molchi» mahsulotni o'zining avtotransportida olib ketgan taqdirda xaq talab qilinmaydi.

2.2. Neft mahsulotlarini ortish (olib chiqib ketish) oldin to'liq pul to'langandan so'ng «Iste'molchi»ning talabi asosida amalga oshiriladi. Neft mahsulotlari olib chiqib ketilishida avtosisternalar neft baza tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (1510-84 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

3. HISOB-KITOBNING TARTIBI VA NARXLARI

3.1. Ushbu shartnoma o'zaro hisob-kitoblar uchun asos hisoblanadi. Hisob-kitoblar «Iste'molchi»ning to'lov topshiriqnomalari asosida amalga oshiriladi. «Iste'molchi» oladigan neft mahsulotlari uchun oldindan 100% mablag'larni pul o'tkazish yo'li bilan belgilangan tartibda to'lab berish majburiyatini oladi.

3.2. Hisob-kitob raqamiga mablag'lar kelib tushgan «Yetkazib beruvchi» «Iste'molchi»ga («Iste'molchi»ning maxsus avtotransportida yoki ijaraga olingan avtotransportda olib ketilishi mumkin. Bunda avtotransportlar barcha talablarga javob bergan taqdirda ruxsat etiladi) mahsulotlarni maxsus avtotransportlarda yetkazib beradi.